

NAVOIY IJODIDAGI O'XSHATISHLAR TAHLILI

Shonazarova Hulkaroy Bunyod qizi

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi Xorazm, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy lirikasida qo'llanilgan turg'un hamda erkin o'xshatishlar tadqiq qilingan. Ularda aks etgan milliy mentalitet, milliy tafakkur bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *tasavvuf, lirika, o'xshatishlar, turg'un o'xshatishlar, erkin o'xshatishlar, o'xshatish etaloni, metafora.*

Buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodi uning hayotlik davrlaridanoq o'rganila boshlangan. Bugungi kunga kelib Navoiy ijodiga bag'ishlab yozilgan maqolalar va ilmiy tadqiqot ishlarini sanab sanog'iga yetish mushkul. Shunday bo'lsa-da, adib ijodining tadqiq etilishi lozim bo'lgan ko'plab qirralarining mavjudligi bu mavzuga qayta-qayta murojaat etishga undaydi, bizni yangi ilmiy izlanishlarimizga asos bo'ladi.

Zero, Navoiy ijodini "mazmun va mohiyatini to'la anglash, his qilish oson emasligini ham inkor etib bo'lmaydi. Ularning asl mohiyatini to'la tushunishning murakkabligi, ulardagi sir-u sinoatlarning ko'p hollarda ochilmay qolayotgani ham sir emas"(1, 3). Adib asarlaridagi mazmun-mohiyatni tushunishning murakkabligini uning mutassavvif ijodkor ekanligi bilan ham izohlash mumkin. Ulug' shoir asarlari tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan. Shuning uchun ham ularda ifodalangan ramzlarga alohida e'tibor berish zarur.

Navoiy lirikasi mavzu yo'nalishining rang-barangligi, g'oyaviy mazmunining g'oyatda boyligi bilan xarakterlanadi. Lirik janrning xilma-xil ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan bu she'riyat ulug' san'atkorning butun hayoti davomida yuzaga kelgan bo'lib, unda shoir hayoti va fikriy dunyosi bilan bog'liq ko'pgina masalalar o'z in'ikosini topgan(2, 60). Adib lirikasida ishq, vafo, visol, hijron, insof va adolat kabi insoniy tuyg'ularni tasvirlashda yoki oshiq hamda ma'shuqa obrazlarini yaratishda qator badiiy-tasviriy vositalardan keng foydalanilganini, ayniqsa, betakror o'xshatishlar yaratilganini kuzatish mumkin. O'xshatishlar badiiy-tasviriy vosita sifatida adabiyotimizda keng qo'llanilib kelgan. Ular mumtoz adabiyotda tashbeh yoki tashbih termini bilan ham yuritilgan. A.Hojiahmedov tashbihga shunday ta'rif beradi: "Tahbih – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir"(3, 6). O'xshatishning ikkita turi farqlanadi: turg'un o'xshatishlar hamda erkin (muallif) o'xshatishlari. Navoiy o'z asarlarida turg'un o'xshatishlarni qo'llash bilan bir qatorda betakror, original o'xshatishlar yaratadiki, bu yozuvchining yuksak mahoratini namoyon etib turadi. Biz ushbu maqolamizda Navoiy ijodida qo'llanilgan turg'un hamda hamda erkin o'xshatishlarni tahlilga tordik. Quyidagi g'azallar tahliliga e'tibor beramiz:

Ruhi mahz ul tozavu tar sarvi ra'nodek qading,

Ne ajab bo'lsa ravon bo'lg'anda elga toza ruh.

Ya'ni: Sening ruhing pok, qading sarv-u ra'nodek ekan, fayzingdan elga ham pok ruh nasib etsa, ne ajab(1, 112). Mumtoz adabiyotda yorning tik va go'zal qomatini tasvirlashda sarv daraxtiga qiyoslashdan foydalanganligini ko'p kuzatamiz. Navoiy ijodida ham ana shunday tasvirlarda sarv, arg'uvon, shamshod kabi daraxt nomlari qo'llanilgan:

• Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg'a ayt,

• Zulfi sunbul, yuzi gul sarvi gulandomimg'a ayt.

• Ya'ni: Ey tong yeli, ahvolimni yuzi gulday chiroyli, sochi sunbulday xushbo'y, qomati sarvday tik va gul kabi nozik dilga orom beruvchi yoringa ayt(1, 77).

Ushbu g'azalda yuz gulga, soch sunbulga, tik qomat esa sarvga qiyoslangan. Ular o'xshatishlarning qisqargan shakli – metaforaga misol bo'ladi. Gulday, sunbulday, sarvday o'xshatishlari turg'un o'xshatishlar bo'lib, ular hozirgacha badiiy asarlarda qo'llanilib keladi. "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" da sarvday o'xshatishiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Sarvday – tik, adil, kelishgan. Odamning qaddi-qomati haqida. Uning sarvdek tik qomati yigitni befarq qoldirmadi (M.Hazratqulov. Sulton bilan malika)" (4, 183). E'tiborli jihati shundaki, sarvdek, shamshoddek kabi o'xshatishlar turg'un o'xshatishlar bo'lib, ulardagi o'xshatish etaloni alohida ahamiyat kasb etadi. O'xshatish etaloni o'xshatishning markazini, mag'zini tashkil etib, boshqa unsurlar ayni shu etalon atrofida birlashadi. Muhimi, xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o'ziga xoslik, ya'ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma'lumot bevosita ayni shu o'xshatish etalonida tajassum topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg'unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi(4, 10). Ayniqsa, Navoiy ijodida qo'llanilgan turg'un va erkin o'xshatishlarda o'zbek xalqining milliy qiyofasi, milliy tafakkuri, o'ziga xos mentaliteti yanada yorqinroq namoyon bo'lgan.

Shuni qayd etish kerakki, ba'zi lingvomadaniyatlar uchun me'yoriy hisoblangan o'xshatish etalonlari boshqa xalqlarning lisoniy mental an'analari uchun begona bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbeklarda xushbichim qomatli ayollarga sarvday, turklarda gavadali ayollarga at gibi o'xshatishi qo'llaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulug'vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirga qiyoslanganda u xursand bo'ladi, chunki hind xalqining idrokida sigir go'zallik timsoli sifatida gavalanadi. Shuningdek, Hindistonda sigir muqaddas hayvon sanaladi(5, 106).

Ushbu g'azaldagi kabi yuzning gulga o'xshatilishi mumtoz adabiyotimiz uchun an'anaviy holat. Gulday o'xshatishi hozirgacha faol qo'llanilib kelayotgan o'xshatish hisoblanadi. "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" da gulday o'xshatishining beshta ma'nosining berilishi ham uning tilimizda qanchalik keng qo'llanilishini ko'rsatadi. Ushbu o'xshatish etalonida o'zbek xalqiga xos milliy konnotatsiya mavjud. Gulday o'xshatishidan tashqari, o'zbek lingvomadaniyatida ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba'zan kulchaga, inglizlarda olchaga, atirgulga (as red as a cherry/ rose/), xitoy va koreyslarda o'rikka, majnuntol novdasiga qiyoslash me'yoriy hol hisoblanadi(5, 106).

Biz Navoiyni o'zbek adabiy tilining asoschisi deb bilar ekanmiz, xalqimizning milliy g'ururi, kuch-qudratini qayta tiklashda Navoiy merosiga ma'naviy negizlardan biri sifatida qarashimiz lozim. Uning har bir asarini xalqimizning milliy dunyoqarashi, milliy xarakteri, urf-odatlarini, tili, dinidan kelib chiqib tadqiq etish asosiy vazifalarimizdan biridir(6, 4).

Navoiy ijodida turg'un o'xshatishlar bilan bir qatorda erkin o'xshatishlar ham keng qo'llanilgan. Ma'lumki, badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmagani, oxorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi(4, 6).

Masalan:

G'amidin durri maknundek sirishkim oqti Jayhunde,

Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g'altonim.

Ya'ni: Uning g'amidan qimmatbaho durlardek ko'z yoshlarim Jayhun daryosiday oqdi, bu ko'z yoshim tomchilari xuddi yulduzlarday osmonni bezadi.

Ko'z yoshlarning Jayhun daryosiday oqishi yoki ko'z yoshi tomchilarini yulduzga o'xshatilishi Navoiyga xos tashbehlaridir.

Yoki:

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.

Ya'ni: Sevgilim yuzini yopqach, ko'zimdan tinimsiz yosh to'kiladi. Bu go'yo quyosh bekinganidan so'ng yulduzlar paydo bo'lganiga o'xshaydi.

Yor yuzini ko'rolmay yig'lagan oshiq holati quyosh ketgandan so'ng chiqqan yulduzlarga muqoyasa qilingan. Inson ruhiy kechinmalarini bunday shoirona nozik o'xshatishlar bilan tasvirlash shoirning o'ziga xos ijodiy topilmalaridir. Bundan tashqari, bu yerda yorning yuzi quyoshga, oshiqning ko'z yoshlari esa yulduzlarga qiyoslanmoqda. Ularni o'xshatishlarning qisqargan shakli – metaforaga misol qilish mumkin.

Navoiyning "Yordin ayru ko'ngul..." deb boshlanadigan g'azali boshdan oyoq tashbeh san'ati asosida yozilgan:

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,

Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim joni yo'q.

Yordan ayrilgan ko'ngilni sultoni yo'q mamlakatga o'xshatishdan boshlangan g'azal ketma-ket oxorli o'xshatishlar bilan boyib boradi. Yordan ayru ko'ngil yana jonsiz jismga, gul-u rayhoni yo'q qora tuproqqa, qorong'i kechaga, tiriklik suvi yo'q zulmatga, do'zaxga qiyoslanadi.

Navoiy ijodini ba'zi muxlislar dengizga qiyoslaydilar. Buning odatdagi dengizdan farqi shundaki, bu suv bilan emas, balki so'zlar va iboralar bilan to'latilgan. Navoiy asarlari tili har jihatdan hozirgi tilimizga yaqin. Unda garchi boshqa turkiy tillar bilan o'xshashlik alomatlar mavjud esa-da, forsiy va arabiy so'z hamda iboralar tez-tez uchrab tursa-da, asos e'tibori bilan u tilimizning asosiy xususiyatlarini saqlagan(6, 8).

Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlaridan "Sab'ayi sayyor"da Allohga iltijo qilib quyidagi satrlarni yozadi:

Deganimni ulusqa marg'ub et!

Yozg'onimni ko'ngulga mahbub et!

Xalqqa zebi torak ayla oni,

O'qug'anga muborak ayla oni.

Yetti aflokni anga yor et,

Yetti iqlim elin xaridor et!

“Marg‘ub et” – “jozibali qil” degan ma‘noni bildiradi. “Zebi torak” – boshga qo‘yiladigan toj(7, l50).

Navoiy turkiy adabiyotni o‘zining go‘zal g‘azallari, betakror misralari bilan boyitganiga besh yuz yildan ortiqroq vaqt o‘tdi. Bu yillar davomida uning ijodi o‘zi orzu qilganiday elga “marg‘ub”, she‘riyatga oshno ko‘ngillarga “mahbub” bo‘ldi. Yildan yilga uning asarlarini ko‘ngliga jo qilib, hayotining maslagiga aylantirayotgan, undagi g‘oyalardan oziqlanib, ma‘naviy boyib yashayotgan insonlar soni ko‘paydi. Yer yuzida Navoiy asarlari yetib bormagan biror joy qolmadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Adib o‘zi yozganiday “yetti iqlim” eli uning asarlariga “xaridor” bo‘ldi.

Bularning hammasi ulug‘ shoirning ezgu tilaklari amalga oshganidan, nafaqat o‘z eli, balki butun insoniyat uchun qilgan beminnat xizmatlari qadrlanib kelyotganidan darakdir!

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.To‘xliyev. Navoiy g‘azallari. I kitob. – Toshkent, “Bayoz”, 2015.
2. T.Matyoqubova. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2010.
3. A.Hojiahmedov. She‘r san‘atlarini bilasizmi? – Toshkent, “Sharq”, 1999.
4. N.Mahmudov, D.Xudoyberganova. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2013.
5. Sh.Usmonova. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
6. A.Hayitmetov. Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning metodologik asoslari haqida// O‘zbek tili va adabiyoti. № 2, 2001.
7. P.Qodirov. Til va el. – Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2010.
8. A.Navoiy. Topmadim. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.